



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI  
VAZIRLIGI**

**RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI**



**2019-2020-O'QUV YILIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM  
MAKTABLARINING 11-SINF O'QUVCHILARI UCHUN YAKUNIY  
DAVLAT ATTESTATSIYASI O'TKAZISH BO'YICHA TARIXI FANIDAN  
METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR**



**Toshkent-2020**

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 11-sinf o'quvchilari yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish bo'yicha metodik tavsiya va materiallarni tijoriy maqsadda ko'paytirib tarqatish taqiqlanadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari metodbirlashmalari bosqichli nazorat imtihoni materiallariga 15-20% gacha o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

### **Tuzuvchilar:**

A.Nurqulov - Respublika ta'lim markazi bo'limi boshlig'i.

N.Hakimov-Respublika ta'lim markazi metodisti.

O.Shernayev-Respublika ta'lim markazi metodisti.

### **Taqrizchilar:**

A.Zamonov-Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti "O'zbekiston tarixi" kafedrasi tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Sh.Ergashev - O'zR FA Tarix instituti katta ilmiy xodimi, t.f.n., dotsenti.

Q.Exsonov-Toshkent shahar Yashnobod tumani 231-maktab tarix fani o'qituvchisi

**@uzimtihon**

## **TARIX**

### **11-SINF**

“Tarix” fanidan yakuniy attestatsiya imtihonlari uchun taklif etilayotgan mazkur topshiriqlar umumiy oʻrta taʼlimning davlat taʼlim standartlari asosida tayyorlangan. Ushbu topshiriqlar biletlarda aks ettirilgan boʻlib, har bir biletga uch yoʻnalishdagi mavzu asosida uchtdan savol beriladi: Topshiriqlar quyidagi mazmunda tuziladi.

1. Oʻzbekiston yoki Jahon tarixida yuz bergan tarixiy jarayonlar va amalga oshirilgan islohotlar bilan bogʻliq boʻladi.
2. Oʻzbekiston va Jahon tarixi fanida oʻrganiladigan tarixiy-meʼmoriy inshootlardan biri beriladi.
3. Biletdagi uchinchi topshiriq dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga hissa qoʻshgan tarixiy shaxslaridan biri haqidagi savoldan iborat boʻladi.

#### **Birinchi savol boʻyicha oʻquvchilarning bilimlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:**

<b>T/r</b>	<b>Baholash mezonlari</b>	<b>Ball</b>
1	Tarixiy voqeani yuz bergan vaqti va sababini ayta olishi	1 ball
2	Jarayon yoki islohotlar tashabbuskori (tashabbuskorlari) ni faoliyatini bilish.	1 ball
3	Amalga oshirilgan islohotlarning mohiyatini yoritib berishi.	1 ball
4	Hududning qayerda joylashganligi va chegaralarini zamonaviy xaritadan koʻrsata olishi.	1 ball
5	Jarayon yoki islohotlar boʻlgan davrdagi shart-sharoitlar va oqibatlari.	1 ball
<b>Jami:</b>		<b>5 ball</b>

#### **Ikkinchi savol boʻyicha oʻquvchilarning bilimlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:**

<b>T/r</b>	<b>Baholash mezonlari</b>	<b>Ball</b>
1	Meʼmoriy inshoot sanasi yoki davrini toʻgʻri aytishi.	1 ball
2	Meʼmoriy inshootni qurdirgan shaxs yoki shaxslarni bilishi.	1 ball
3	Meʼmoriy inshootning qayerda joylashganligini (zamonaviy xarita orqali) koʻrsata olishi	1 ball
4	Meʼmoriy inshootning oʻziga xos koʻrinishi yaʼni meʼmorchilik uslublarini tasvirlay olishi	1 ball
5	Meʼmoriy inshootning vazifasini toʻgʻri ayta olishi	1 ball
<b>Jami:</b>		<b>5 ball</b>

**Uchinchi savol bo'yicha o'quvchilarning bilimlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:**

<b>T/r</b>	<b>Baholash mezonlari</b>	<b>Ball</b>
1	Tarixiy shaxsning yashagan yillari (yoki davri)ni to'g'ri aytishi	1 ball
2	Tarixiy shaxsning hayoti haqida xronologik tarzda ma'lumot berishi	1 ball
3	Qaysi fan yoki madaniyat sohalarida ijod qilganligi haqida ma'lumot berishi	1 ball
4	Tarixiy shaxsning asarlari yoki amalga oshirgan ishlarini aytib o'tishi	1 ball
5	Tarixiy shaxsning insoniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissassi haqida fikr bildirishi	1 ball
<b>Jami:</b>		<b>5 ball</b>

**Izoh:** har bir yo'nalish bo'yicha ballar yaxlitlanib (Bunda yaxlitlangan ball 4,5 dan past bo'lsa – 4 baho, yuqori bo'lsa – 5 baho. Masalan:  $5+4+5=14:3=4,6$  yaxlitlansa 5 baho,  $4+4+5=13:3=4,3$  yaxlitlansa 4 baho), yakuniy attestatsiya imtihoni sinovining yakuniy bali sifatida sinf jurnalining “O'zbekiston tarixi” sahifasiga qo'yiladi.

O'quvchilarga bilet olganlaridan keyin tayyorgarlik ko'rishlari uchun 20 daqiqa vaqt beriladi.

Imtihon savollariga maktab metodbirlashmasi qarori bilan tuzatishlar, qo'shimchalar va takliflar kiritilishi mumkin. Imtihon topshirish jarayonida o'quvchi o'z fikrini faqat darslik materiallari asosida emas, balki boshqa manbalarga tayangan holda ham bayon qilishi mumkin. Shuningdek, tarix fani chuqurlashtirib o'qitiladigan sinf va maktablarda imtihon biletleri 4 ta savoldan iborat bo'ladi. Tarix fani chuqurlashtirib o'qitiladigan sinf va maktablarning imtihondagi to'rtinchi savollari o'qituvchi tomonidan tuzilib, maktab metodbirlashmasi tomonidan tasdiqlanadi.

**Tarix**  
**11-sinf**  
**1-BILET**

1. “Sovuq urush” ning boshlanishi.
2. Temuriylar tarixi davlat muzeyi haqida ma’lumot bering.
3. Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi.

**2-BILET**

1. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi.
2. Minorayi Kalon me’moriy yodgorligi haqida ma’lumot bering
3. Jordano Bruno hayoti va faoliyati.

**3-BILET**

1. Spartak qo‘zg‘oloni.
2. Tillakori madrasasi haqida ma’lumot bering.
3. Abdurauf Fitrat hayoti va faoliyati.

**4-BILET**

1. Amir Nasrulloning harbiy islohotlari.
2. Ulug‘bek rasadxonasi haqida ma’lumot bering.
3. Najmiddin Kubro hayoti va faoliyati.

**5-BILET**

1. Amir Temurning davlat boshqaruvidagi islohotlari.
2. Toshkentdagi Mustaqillik maydonidagi “Motamsaro ona” monumenti haqida ma’lumot bering.
3. Abu Ali ibn Sino hayoti va faoliyati.

**6-BILET**

1. MDH ning tashkil topishi.
2. Ichan qal’a haqida ma’lumot bering.
3. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy hayoti va faoliyati.

**7-BILET**

1. Turkiston Muxtoriyati hukumatining tashkil topishi va faoliyati.
2. Ma’buda Artemida ibodatxonasi haqida ma’lumot bering.
3. Alisher Navoiy hayoti va ijodi.

**8-BILET**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi.
2. Muhammad Rahimxon madrasasi haqida ma’lumot bering.
3. Ahmad al-Farg‘oniy hayoti va ijodi.

**9-BILET**

1. Vashington konferensiyasi.
2. Mir Arab madrasasi haqida ma’lumot bering.
3. Mirzo Abdulqodir Bedil hayoti va ijodi.

**10-BILET**

1. Yosh buxoroliklar faoliyati.
2. Dishan qal’a haqida ma’lumot bering.
3. Onore de Balzakning hayoti va faoliyati.

### **11-BILET**

1. Mahmud Torobiy qo‘zg‘oloni.
2. Ichan qal‘a haqida ma‘lumot bering.
3. Nikolay Kopernikning hayoti va faoliyati.

### **12-BILET**

1. “Loy jangi” haqida ma‘lumot bering.
2. Sherdor madrasasi haqida ma‘lumot bering.
3. Abu Rayhon Beruniy hayoti va faoliyati.

### **13-BILET**

1. Muhammad Rahimxon I islohotlari.
2. Labihovuz ansambli haqida ma‘lumot bering.
3. Yusuf Xos Hojib hayoti va faoliyati.

### **14-BILET**

1. “Stolipin agrar islohoti” haqida ma‘lumot bering.
2. Islomxo‘ja minorasi haqida ma‘lumot bering.
3. Berdaq ijodidagi asosiy g‘oya.

### **15-BILET**

1. Shayboniylar sulolasi davridagi pul islohotlari.
2. Semiramida osma bog‘lari haqida ma‘lumot bering.
3. Galileo Galiley hayoti va ilmiy faoliyati.

### **16-BILET**

1. Yuechjilarni O‘rta Osiyoga bostirib kirishi.
2. Galikarnas maqbarasi haqida ma‘lumot bering.
3. Abdulla Avloniy hayoti va faoliyati.

### **17-BILET**

1. Anqara jangi haqida ma‘lumot bering.
2. Shomahmudovlar oilasi monamenti haqida ma‘lumot bering.
3. Mahmud Zamaxsharining hayoti va faoliyati.

### **18-BILET**

1. Meydzi islohotlari.
2. Konstantinopoldagi Muqaddas Sofiya ibodatxonasi haqida ma‘lumot bering.
3. Burhoniddin al-Marg‘inoniy hayoti va faoliyati.

### **19-BILET**

1. O‘zbekistonda ma‘naviy va tarixiy merosning tiklanishi.
2. “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” memorial majmuasi haqida ma‘lumot bering.
3. Ajiniyoz Qo‘siyoz o‘g‘li hayoti va ijodi.

### **20-BILET**

1. BMTning tashkil topishi.
2. Sherdor madrasasi haqida ma‘lumot bering.
3. Turdi Farog‘iy hayoti va ijodi.

### **21-BILET**

1. Salib yurishlari.
2. Misr piramidalar haqida ma‘lumot bering.
3. Mohlaroyim – Nodira hayoti va ijodi.

## **22-BILET**

1. SSSRning tashkil topishi.
2. Registon ansambli haqida ma'lumot bering.
3. Amir Umarxon hayoti va faoliyati.

## **23-BILET**

1. Amir Temurning Movarounnahrni egallashi.
2. Qadimgi greklarning quyosh xudosi Gelios haykali haqida ma'lumot bering.
3. Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va faoliyati.

## **24-BILET**

1. Spitaman qo'zg'oloni.
2. Konstantinopoldagi Muqaddas Sofiya ibodatxonasi haqida ma'lumot bering.
3. Kamoliddin Behzod hayoti va faoliyati.

## **25-BILET**

1. O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi.
2. Ma'buda Artemida ibodatxonasi haqida ma'lumot bering.
3. Mirzo Ulug'bek hayoti va faoliyati.

## **26-BILET**

1. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini e'lon qilinishi.
2. Temuriylar tarixi davlat muzeyi haqida ma'lumot bering.
3. Nikolay Kopernikning hayoti va faoliyati.

## **27-BILET**

1. Abdullaxon II ning islohotlari.
2. Sitorai Mohi Xosa haqida ma'lumot bering.
3. Ahmad Donish hayoti va faoliyati.

## **28-BILET**

1. O'zbekiston SSRning tuzilishi.
2. Buyuk Xitoy devori haqida ma'lumot bering.
3. Imom al-Buxoriyning hayoti va faoliyati.

## **29-BILET**

1. O'zbek modelining ishlab chiqilishi.
2. Buxoro arki haqida ma'lumot bering.
3. Xoja Bahouddin Naqshbandiy hayoti va faoliyati.

## **30-BILET**

1. Buxoro xonligini tashkil topishi.
2. Xudoyorxon saroyi haqida ma'lumot bering.
3. Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyati.

